

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЯТ ВА
СПОРТ ИШЛАРИ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ КОНСЕРВАТОРИЯСИ

Муסיкий шарқшунослик кафедраси

«Ноталаштириш» фанидан

КУРС ИШИ

Мавзу:

**«Бойсун фольклор-этнографик жамоаси
фаолияти хусусида»**

**Бажарди: КМФФ II курс талабаси
муסיқашунос Яхёева Ш.**

Илмий раҳбар: Қурбонов Х.Т.

Тошкент - 2011

Режа:

Кириш

1. Бойсун фольклор-этнографик жамоаси тарихи
2. Бойсун фольклор-этнографик жамоасининг бугунги кундаги фаолияти ва қўшиқлари.

Хулоса

“Bo’ysun” xalq folklor etnografik jamoasi

Bo’ysun tog’i etaklari bahor ayomida afsonalardagidek go’zal bo’ladi. Qor suvlari shamolday oqib, hamma yoqni uyg’otadi, gullab yashnaydi. Shu suvlarning jildirashini, jilg’alarning mayin ohanglarini eshitganmiz siz? Bir zum quloq solib tursangiz xuddi shu shaloladay, jilg’alardan mayin ohanglar-u, o’ynoqi kuylar taralib turganligiga guvoh bo’lasiz.

Bu yillar “Shalola” uchun tajriba to’plash professional sa’nat sirlarini o’rganish, xalq ijodiyotining bag’riga chuqurroq kirib boorish davri bo’ldi. Ansambl havaskorligidan salkam professional darajasiga ko’tarila oldi. O’z repertuar programmasi bilan qoniqmay, huzurida folklor-etnografik jamoa ham tashkil etilishiga erishdi.

Bir muncha vaqt u ham “Shalola” deb atalib kelindi. 1988-yilda “Shalola” dan quvvat olib o’sib yetilgan folklor-etnografik ansambli o’z mustaqil yo’li va nomiga ega bo’lib, “Bo’ysun” deb atala boshladi.

“Bo’ysun” “Shalola” ansambli huzurida tug’ilib, atak-chechak qilayotgan davrida- 1975-yil Pol’sha xalq Respublikasining Zakapan’ye shahrida bo’lib o’tgan to’g’li o’lkalar XIII xalqaro festivalida ishtirok etib II darajali “Kumush bolg’a” mukofotining sovrindori bo’ldi.

1977-yil xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivaliga qizg’in tayyorgarlik boshlandi. Mazkur festivalning ilk bosqichida ham, uning yakuniy tadbirlarida ham “Bo’ysun” yaqqol ko’zga tashlandi. Chunki festivalga tayyorlanish va o’tkazish davomida 1 qator folklor-etnografik ansamlari va havaskorlari jamoalriga asos solindi. Shu bilan birga yuzlab talantlar aniqlandi, folklor amaliyotida bir qancha tajribalar to’plandi. Madaniyat muassasalari, ayniqsa, xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar Respublika ilmiy-metodik markazining ishi bir muncha jonlandi. Buni xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivalida doirasida o’tkazilgan folklor-etnografik ansamlari, katta ashula ijrochilari va

oilaviy ansamblarning Respublikami ko'rik tanlov natijalari ham isbotlab berdi. Respublikadagi 47 jamoa orasidan "Bo'ysun" faxrli 1-chi o'rinni egalladi.

1987 yil "Bo'ysun" o'zbek xalqining qadimiy, milliy urf odatlarini ijro etgan ashula va raqslar orqali ifoda etib Afg'oniston mamlakatining Balx viloyatida o'zining qiziqarli dasturini namoyon etadi. 1988 yil 12-16 avgustda Moskvada bo'lib o'tgan "Ozbekiston" kunlarida o'z mahoratlari bilan hushnud etadi.

"Bo'ysun" folklor-etnografik jamoasi tashkil bo'lishidanoq o'zining betakror sermazmun, serjilol o'ynoqi repertuarlari orqali o'z mamlakati aholisi orasida tez tanilib shuhrat qozondi. "Bo'ysun" Ijro etgan xalq lapparlari mavum marosim qo'shiqlari shinavandalari dilini rom eta bordi.

1988-yil 25-26 sentabr Qo'qon "Xalq ijodiyotining saqlash va rivojlantirish muammolari" mavzusida yirik anjuman bo'lib o'tdi. Unda respublikadan chet mamlakatlardan taniqli folklorshunos olimlar madaniyatva matbuot hodimlari ishtirok etadilar. Qiziqarli maruza va bahslar jarayonida "Bo'ysun" haqida so'z borib mazkur jamoaning o'ziga hos repertuarilari, ijro usuli kiyim kechagu bezaklari hususida bahs yuritilib jamoaga yaxshi baho berildi 1988-yil dekabr oyida "Bo'ysun"ga keyin "Xalq folklor-etnografik ansambli" degan faxrli unvon berildi. Bunday yuksak unvonga qisqa vaqt ichida sazovor bo'lishning boisi bor edi, albatta...

"Bo'ysun" jamoasi Respublikaning boshqa jamoalari ichida tez shuhrat topishining boisi shunday ediki ansambl bo'ysun tumanida saqlanib kelayotgan qadimiy an'analarimimizni qanday bo'lsa shundayligicha sahnaga olib chiqib tomoshabinlarga havola qila oldi.

“Bo’ysun” dasturi so’zsiz boshqa jamoalar dasturiga nisbatan boy nozik ta’b va mumtozligi bilan ajralib turardi. Jamoa A’zolari mahorati yordamida O’zbekistonning janubiy tumani bo’lmish Bo’ysuning qadimiy davrdan saqlanib keladigan bahor mavsumiga oyid marosim f folklori o’zining to’liq ifodasini topgan edi. Ana shu sabali mazkur jamoa o’z mamlakatida va chet ellarda tomoshabinlarning iliq olqishlari va tahsinlariga sazovor bo’la olgan.

“Bo’ysun” folklor-etnografik jamoasi tinimsiz izlanishlar evaziga o’z repertuarlarini yangidan yangi dasturlar bilan boyitib kelmoqda.

“Xayinchak qo’shig’i”, “Ko’pkari Uloq”, “Sovchilar qo’shig’i”, “O’tin yori”, “Turna keldi”, “Ulijon”, va boshqa qadimiy terma qo’shiqlar va raqslar shular jumlasidandir

“Bo’ysun”ning boshqa jamoalardan mumtoz tomoni shunda-ki, ishtirokchilar har bir dasturning paydo bo’lishiga mas’uliyat bilan o’z uslublarni takrorlanmas jihatlarinin namoyon etishga harakat qilib, o’z repertuarlarini tinmay boyitib, yangilab boradilar.

Xalq milliy musiqa asboblaridan – do’mbira, chak-chak, zilcha, qobiz, tanbur, doira, ushpuloq, sibiziq, nay, g’ijjakdan foydalanishganligi ham ijro salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ma’lumki, folklor jamoalarining nufuzini oshirishda o’zi yashayotgan hududining kiyimlari, zebu-ziynatlaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga kasb etadi. Bu borada “Bo’ysun” jamoasining kiyimlari ham shu huduga mos va hosligidan, qadimiyligidan darak beradi. bu shakl-u shamoi ham to’g’liklarning etnografik tarixidan dalolatdir.

Darhaqiqat birgina “Bo’ysun”ning o’zida 20 xildan ortiqroq do’ppi shakllari mavjud. Lolagul, To’ldirma va boshqalar ularning har birida quyoshning o’z ramzi topgandir.

“Bo’ysun” ijrochalarining tashqi ko’tinishlaridan tortib ijro etgan tomoshalarigacha muhlislarning ma’naviy dunyosini boyitishda qadimiy urf-odat, marosim va an’analarga bo’lgan hurmat e’tiborni uyg’otishda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamoaning o’ziga hosligi tematik yo’nalishi bilan ham belgilanadi. Har bir qo’shiq raqs sahna ko’rinishlari kundalik turmushining u yoki bu tomonlari sa’nat turi bilan ifodalaniladi.

“Yorg’inchoq” qo’shig’i esa Sayyora Qo’ziyeva ijrosida maromga yetib ijro etilgan. Hozirgi kunda Sayyora Qo’ziyeva havaskorlikdan professional darajasiga ko’tarildi.”Bo’ysun” jamoasida faoliyat ko’rsatib O’zbekistonda hizmat ko’rsatgan artist unvoniga sazovor bo’ldi. Jamoa dasturidan joy olgan “Ko’k Salla” kuyi mazmunida tabiatdan ochiq havo so’raladi, qo’shiq kuy usullari raqs harakatlariga mos tushganligi uchun kishini rom etadi.

Bo’ysun tumanida har uch oilaning biri sanatkori hisoblanadi. Xalq sa’natini sevishi, uni asrab avaylab to’laligicha saqlangan holda o’z vorislariga yetkazishi, o’z elining fidoiylariga nasib etsin.

Bo’ysun qo’shiqlari Shaloladay tiniqligicha, tog’laridan mag’rur va purviqorligicha, chashma suviday jo’shqinligicha odamlariday sodda va samimiyligicha xalq qalbidan yanada chuqurroq joy olsin deymiz.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алексеев Э. Фольклор в контексте современной культуры. М., 1988.
2. Квитка К.В. О критике записей произведений народного творчества // Квитка К.В. Избранные труды в двух томах. Том II. 1973. С. 30-38.
3. Квитка К.В. О постановке тактовой черты // Квитка К.В. Избранные труды в двух томах. Том II. М., 1973. С. 40-46.
4. Квитка К.В. О природе пауз в народных напевах // Квитка К.В. Избранные труды в двух томах. Том II. М., 1973. С. 66-68.
5. Тахалов С. Проблемы исполнения и нотной записи узбекской таджикской традиционной инструментальной музыки. КД, Т., 1990.
6. Ф. Кароматли. Ўзбек халк мусиқа меъроси. 1-том. 1978 йил.